
Farg'ona shahridagi 47 ta umumta'lim maktablarining barchasida "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida "Bilimlar kuni" tadbirlari o'tkazildi

Bugun Farg'ona shahridagi xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 43 ta o'rta ta'lim maktablari, 2 ta maxsus va 2 ta viloyat tasarrufidagi maktab-internatlarida 2022-2023 o'quv yili boshlandi.

Hayajonli tadbirlarda viloyat va shahar hokimliklarining vakillari, boshqarmalar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashi deputatlari, mahalla fuqarolar yig'inlari xodimlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Qo'shaloq tadbirda so'zga chiqqanlar mustaqilligimiz bergan imkoniyatlar, yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar samarasi, o'qituvchi va yoshlar uchun yaratib berilayotgan qulayliklar haqida ta'kidlab o'tdilar. Ustoz-murabbiylar hamda o'quvchilarga boshlangan o'quv yilida omad va zafarlar tilandi.

Tadbirda bu yil ilk bora maktab ostonasiga qadam qo'ygan 5972 nafar jajji o'quvchilarga Prezident sovg'alari topshirildi.

2022-09-08 10:37:32